



Ikki ustundagi soʻzlarni moslashtiring. Bu soʻzlarni bir soʻz bilan qanday ifodalash mumkinligini ayting.

gʻaroyib

voqea

hayrat

narsa

ajoyib

hodisa

Siz bu soʻzlarning yana qanday maʼnodoshlarini bilasiz?



Mo'jiza

Umida Abduazimova


Mo'jizani yo'q degan
Bolaga gapim lo'nda:
Nega qizarib qoldi
Olchamiz unda?

Kechqurun boqqa chiqsak,
Qop-qorong'i bog'imiz.
Nimaga o'chib qoldi
Shamchirog'imiz?

Ko'kka boqdi ko'zimiz,
Charaqladi yulduz-oy.
Ko'nikib qorong'iga
Ko'rindi har joy.

Nimaga degan savol
O'rab har yonni,
O'roq qilib oldik so'ng
Mo'jizajonni.

Mo'jizaga ishonib,
Mo'jiza kutar.
Bolalarga har bir kun
Mo'jiza tutar.





1. She'rda muallif kimga murojaat etgan?
2. She'rda qanday mo'jizalar haqida aytilgan?
3. Nima uchun muallif olchanning qizarishini, kechqurun tushishini, oy, yulduzning ko'kka chiqishini mo'jiza deb atadi?
4. Siz ham mana shunday mo'jizalarga misol keltira olasizmi?
5. *"Nimaga degan savol O'rab har yonni"* misrasini qanday tushundingiz?



She'rni ifodali o'qing.



Nuqtalar o'rniga she'r matnida berilgan so'zlarning ma'nodoshini qo'llab, she'rni qayta o'qing.

... **boqdi ko'zimiz,**

... **yulduz-oy.**

... **qorong'iga**

... **har joy.**



She'rdan qofiyadosh so'zlarni topib o'qing.



Ajratib ko'rsatilgan harflarni birlashtirib o'qing.

Mvfboknvjyniopzsdrazxcfgtqtuauytitresh
 kjhoasdnbvmibngb
 Mxzcfo'ynjyniopznhgsadrkdsrugbvtmartdr
 Bkgtoertlhnbadfglrfanbvcfrkjhgxcdratyu
 ghvcxamjurbsvidrjhkvcduytn
 Mxzcfo'ynjyniopznhgsadrtdrugbvtlkmardr



She'rni ifodali yod oling.

